



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


**Jizzax viloyati
kichik tadbirkorlik
2022- yil yanvar-sentabr**

Dastlabki ma'lumotlar


Jizzax viloyatida kichik tadbirkorlik




Yanvar-sentabr oylarida
kichik tadbirkorlik
subyektlarining YaHMdagi
ulushi, % da



2020- yil



2021- yil



2022- yil

2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi **79,4** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **1455,0** birlikni tashkil qildi.

2022- yilning yanvar-sentabrda **23786** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **111,6** foizga ko'p demakdir.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Savdo



Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Qurilish





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda **1139** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **939** ta, sanoatda **695** ta, yashash va ovqatlanishda **213** ta, qurilishda **166** ta, axborot va aloqa **64** ta tashkil etilgan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari





2022- yilning yanvar-sentabrda kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 99,5 

Sanoat 51,3 

Qurilish 95,0 

Investitsiya 68,1 

Savdo 84,6 

Xizmatlar 58,4 

Eksport 45,4 

Import 86,4 



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

21918




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

3611

2022- yilning yanvar-sentabrda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, % da

Savdo

30,0%



Sanoat

18,1%



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

20,3%



Qurilish

9,8%



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

7,1%



Tashish va saqlash

2,8%



Axborot va aloqa

1,1%




Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,2%




Boshqa faoliyat turlari

9,6%



1- oktabr holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda

Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar



Hududlar bo'yicha yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda




■ 2021 y. yanvar-sentabr

■ 2022 y. yanvar-sentabr

2022- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Jizzax shahri – 22,5 %, Sharof Rashidov – 11,9 %, G'allaorol – 11,1 %, Zomin – 9,2%, Forish – 7,9 % Baxmal–7,5 % tumanlar hissalariga to'g'ri keldi.






Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



Ma'lumot uchun: 2022-yilning yanvar-sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:

Savdoda
1139 ta

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida
939 ta

Sanoatda
695 ta

Qurilishda
166 ta

Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida




2022- yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 15,1 birlikni tashkil etdi.



Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra*




2022- yil 1-oktabr holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



2022- yil 1-oktabr holatiga ko'ra kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahrida 33,5 birlik, Yangiobod 16,8 birlik, Forish tumanida 16,5 birlik, Arnasoy tumanida 14,9 birlik, Mirzacho'l tumanida 14,8 birlik, Sharof Rashidov tumanida 14,5 birlikni tashkil etgan.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2022 - yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 67,3 mln. AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 45,4 % ini tashkil etdi.




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

2022 yilning yanvar-sentabr kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da



2022 – yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Baxmal, Zafarobod, Mirzacho'l va Yangiobod tumanlarida – 100,0 %, Paxtakor tumanida 99,8 %, Sh.Rashidov tumanida – 74,2 % ni, eng past ko'rsatkich Jizzax shaxrida – 21,7 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **311,1** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **86,4** % ini tashkil etdi.



2022 yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da




2022- yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Baxmal, Mirzacho'l, va Yangiobod tumanlarida – 100,0 %, Forish 99,8%, G'allaorol tumanida – 99,4 %, Sharof Rashidov Paxtakor 98,3 % va eng past ko'rsatkich Zafarobod tumanida – 20,1 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2022- yilning yanvar-sentabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi mlrd. so'm

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4051,8** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi G'allaorol (1708,6 mlrd. so'm) Jizzax shahar (899,9 mlrd. so'm), Forish (384,0 mlrd. so'm), Paxtakor (285,5 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (221,5 mlrd. So'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Zafarobod tumanida (39,2mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati



Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi


2022-yil yanvar-sentabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **51,3 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-sentabr holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Baxmal, Mirzacho'l va Yangiobod (100,0%), G'allaorol tumani (97,9%), Forish tumani (91,7%), Paxtakor tumani (66,9%), Sharof Rashidov tumani (65,0%), ni tashkil etdi. Zafarobod tumani (4,8%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi


2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **6553,6** mlrd. soʻmni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **84,6** % ini tashkil etib. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **110,2%** ga oʻsishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar- sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Jizzax shahri (1849,4 mln. soʻm), Sharof Rashidov tumani (1184,5 mln.soʻm), Zomin tumani (929,1 mln.soʻm), Baxmal tumani (538,2 mln. soʻm), Gʻallaorol tumani (513,6 mln.soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2406,6** milliard soʻmni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **95,0 %** ni tashkil etdi. Oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **106,0 %** ni tashkil qildi.




2022- yilning yanvar- sentabrida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʻati

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp bajarilgan qurilish ishlari hajmi Jizzax shahri (898,1 mlrd. soʻm), Sharof Rashidov (445,9 mlrd. soʻm), Zomin (198,0 mlrd. soʻm), Gʻallaorol (152,4 mlrd. soʻm), Paxtakor (151,2 mlrd. soʻm), Forish (119,2 mlrd. soʻm) hamda Zarbdor (108,7 mlrd. soʻm) tumanlarida qayd etildi.



■ hajm, mlrd. soʻm ● oʻsish surʻati, %

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati




Yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **3415,2** mlrd. soʻmlik xizmatlar koʻrsatildi yoki koʻrsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **58,4** % ini tashkil qildi va oʻsish surʻati 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan **109,5** % ni tashkil qilgan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp xizmatlar hajmi Jizzax shahri (854,6 mln. soʻm), Sharof Rashidov (620,1 mln. soʻm), Gʻallaorol (378,6 mln. soʻm), Zomin (344,5 mln. soʻm), Baxmal (264,6 mln. soʻm), Forish (197, mln. soʻm) va Zarbdor (156,8 mln. soʻm) tumanlari hissasiga toʻgʻri keldi.

2022- yilning yanvar- sentabrda hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va oʻsish surʻati




■ hajm, mlrd. soʻm


● oʻsish surʻati, %

2022- yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi ko'rsatkichlari


2022- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:




Yuk tashishda



Yuk aylanmasida



Yo'lovchi tashishda



Yo'lovchi aylanmasida

2022- yil yanvar-sentabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,3 % ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 100,4 % ni tashkil qildi.

2022-yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,3 % ni tashkil etgan bo'lib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,7 % ni tashkil qildi.

2022-yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 94,2 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 % ni tashkil qildi.

2022-yil yanvar-sentabr oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,3 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 103,1 % ni tashkil qildi.


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022-yil III - chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnoma 708 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 266 (37,6 %) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 422 (59,6%) ta sub'yektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 20 (2,8%) ta sub'yektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,8 % (98 ta), sanoatda – 14,3 % (10 ta), qurilishda – 10,3 % (73 ta), savdoda – 35,5% (251 ta), xizmatlar sohasida – 26,1 % (185 ta)ni tashkil etdi.

2022- yil III - chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Sanoat
- Qurilish
- Savdo
- Xizmatlar




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2022- yil III - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



2022- yil III - chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Jizzax shahri (223 ta), Sharof Rashidov (103 ta), G'allaorol (60 ta), Forish (63 ta), Zomin (61 ta), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari




2022- yilning III - choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2022- yilning III - choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda 36,5%ni xizmatlar sohasida 18,8%ni, sanoatda 11,7% ni, qurilishda 9,4 % ni tashkil etdi. Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdoda 34,9 %ni, xizmatlar sohasida 31,4%ni, sanoatda 15,5% ni tashkil etdi.

2022- yilning III - choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2022 - yilning III - choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 35,7% ni, xizmatlarda 20,6%, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 21,2% ni tashkil etdi.

Shuningdek yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalar eng ko'p ulushi savdo sohasida 35,0% ni, xizmatlar 31,2%ni, sanoatda 15,1% ni, qurilishda 11,0 %ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 7,7 %ni tashkil etdi.

